

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

AN'ANAVIY OBRAZ POETIKASI: JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGI VA QIYOSIY-TIPOLOGIK YONDASHUV

Ma'diyeva Adiba Dovudovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, dotsent (PhD).

e-mail: adibamadiyeva@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3084-6616>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada jahon adabiyotshunosligi nazariyasida an'anaviy obraz tushunchasining shakllanishi, genezisi, poetik tabiati va badiiy-falsafiy funksiyalari tahlil qilinadi. An'anaviy obrazlarning mifologik, diniy, folklor va madaniy ildizlari, ularning turli davrlar va adabiy maktablar doirasida semantik jihatdan yangilanib borishi masalalariga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, mazkur nazariyalar o'zbek mumtoz she'riyatidagi gul, bulbul, may, zulf, yo'l, daraxt, fasllar kabi an'anaviy obrazlarning poetik tabiatini anglash uchun muhim nazariy imkoniyatlar yaratishi asoslanadi. Maqolada an'anaviy obraz statik takror emas, balki tarixiy-madaniy xotira bilan bog'langan, har bir yangi badiiy matnda qayta semantizatsiyalanadigan dinamik poetik kategoriya sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: an'anaviy obraz, badiiy obraz, arxetip, mif, ramz, poetika, madaniy xotira, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarixiy-tipologik metod, semiotika, mumtoz she'riyat, tasavvuf.

ПОЭТИКА ТРАДИЦИОННОГО ОБРАЗА: МИРОВОЕ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ И СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Мадиева Адиба Довудовна

Узбекский государственный университет мировых языков, доцент (PhD).

Аннотация.

В статье анализируются формирование, генезис, поэтическая природа и художественно-философские функции понятия традиционного образа в теории мирового литературоведения. Особое внимание уделяется мифологическим, религиозным, фольклорным и культурным истокам традиционных образов, а также их семантическому обновлению в различные исторические периоды и в рамках разных литературных школ. Обосновывается, что данные теоретические подходы создают важную методологическую основу для понимания поэтической природы таких традиционных образов узбекской классической поэзии, как цветок, соловей, вино, локон, путь, дерево и времена года. Традиционный образ рассматривается не как статическое повторение, а как динамическая поэтическая категория, связанная с историко-культурной памятью и подвергающаяся ресемантизации в каждом новом художественном тексте.

Ключевые слова: традиционный образ, художественный образ, архетип, миф, символ, поэтика, культурная память, сравнительное литературоведение, историко-типологический метод, семиотика, классическая поэзия, суфизм.

THE POETICS OF TRADITIONAL IMAGERY: WORLD LITERARY STUDIES AND A COMPARATIVE-TYPOLOGICAL APPROACH

Ma'diyeva Adiba Dovudovna

Uzbekistan State World Languages University, Associate Professor (PhD).

Abstract.

This article analyzes the formation, genesis, poetic nature, and artistic-philosophical functions of the concept of the traditional image in the theory of world literary studies. Particular attention is paid to the mythological, religious, folkloric, and cultural roots of traditional images and their semantic transformation across different historical periods and literary schools. The study also argues that these theoretical approaches provide an important methodological framework for understanding the poetic nature of such traditional images in Uzbek classical poetry as the flower, nightingale, wine, lock of hair, path, tree, and seasons. The traditional image is interpreted not as a static repetition but as a dynamic poetic category connected with historical and cultural memory and resemanticized in each new literary text.

Keywords: traditional image, literary image, archetype, myth, symbol, poetics, cultural memory, comparative literature, historical-typological method, semiotics, classical poetry, Sufism.

Kirish. Badiiy obraz san'at va adabiyotning voqelikni estetik o'zlashtirish, inson va olam munosabatlarini badiiy umumlashtirish hamda inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ifodalash imkonini beruvchi asosiy kategoriyalardan biridir. Biroq obrazning poetik tabiati barcha adabiy davr va yo'nalishlarda bir xil namoyon bo'lmaydi. Xususan, zamonaviy realizm va modernistik adabiyotda individuallik, psixologik originallik hamda kutilmagan badiiy kashfiyot muhim ahamiyat kasb etsa, mumtoz adabiyot poetikasi an'analar, qat'iy estetik qonuniyatlar, ramziy timsollar va shakllangan badiiy kodlarga tayanadi.

Shu jihatdan an'anaviy obraz tushunchasi alohida nazariy va poetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. An'anaviy obrazni faqat takrorlanib keluvchi badiiy detal yoki tasvir vositasi sifatida tushunish uning mazmun-mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Zero, bunday obrazlar muayyan xalqning ko'p asrlik madaniy tajribasi, diniy-falsafiy qarashlari, mifologik tasavvurlari va estetik tafakkuri bilan uzviy bog'langan holda shakllanadi. Ular tarixiy taraqqiyot davomida o'zining asosiy semantik yadrosini saqlab qolgan holda yangi ijodkor tomonidan qayta talqin qilinadi va yangi ma'no qatlamlari bilan boyiydi.

Jahon adabiyotshunosligi nazariyasida an'anaviy obraz tushunchasi badiiy madaniyat va san'atning uzviy qismi sifatida ta'riflanadi. Bu obrazlar orqali shoir va yozuvchilar inson hayoti va ruhiyatini yanada chuqurroq ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ijodkor o'z fikrini to'g'ridan-to'g'ri aytmay, uni an'anaviy belgilar ortiga yashiradi. Jumladan, o'zbek mumtoz she'riyatida gul — ma'shuqa, ya'ni ilohiy jamol, bulbul — oshiq, ya'ni ilohiy ishq talabgori, may — ilohiy ishq shavqi, zulf esa ilohiy sirilar ramzi sifatida talqin etilishiga guvoh bo'lamiz.

She'riyatda an'anaviy obrazlar badiiy vosita bo'lishi bilan birga, ma'naviy-madaniy merosning muhim qismi sanaladi. Ularning poetikasi, shakllanish jarayoni, o'zgarishi va matndagi o'rnini anglash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. N. Chernishevskiyning "Poeziya — hayot dramasi" [1; 152-b.] degan fikri ham aynan shu nuqtayi nazarni qo'llab-quvvatlaydi. She'riyatda inson taqdiri, muhabbat, orzu va yo'qotish kabi kechinmalar an'anaviy obrazlar vositasida mujassam topadi. Badiiy obraz san'at va adabiyotning voqelikni estetik o'zlashtirish, inson hamda olam munosabatlarini badiiy muhrlashdagi asosiy kategoriyasidir. Biroq adabiy turlar va davrlar kesimida obraz tushunchasining poetik tabiati, tizimli qo'llanilishi turlicha. Zamonaviy adabiy jarayonda, xususan, realizm yoki modernistik oqimlarda individuallik, kutilmagan badiiy kashfiyotlar va personajning ijtimoiy-psixologik originalligi birlamchi o'ringa chiqsa, mumtoz she'riyat tizimi mutlaqo boshqa qonuniyatlarga, ya'ni an'analar, qat'iy badiiy qoliqlar va estetik qoidalarga tayanadi. Shu bois mumtoz she'riyat kontekstida "an'anaviy obraz" tushunchasini takrorlanuvchi badiiy detal yoki tasvir vositasi deb hisoblash ilmiy jihatdan yetarli emas. An'anaviy obraz — bu davrlar va adabiy maktablar osha o'zining semantik asosini saqlab qolgan, ammo har bir yangi ijodkor qalamida yangicha badiiy-falsafiy jilo oladigan barqaror va dinamik kategoriyadir.

An'anaviy obrazlar qachon paydo bo'lgan, degan savolga javob beradigan bo'lsak, uni aynan biror olim nomi bilan bog'lash ilmiy nuqtayi nazardan yetarli emas. Balki bu tushunchaning gnoseologik tabiati va taraqqiyotini tizimlashtirgan, uning davom etishi hamda rivoji uchun xizmat qilgan jahon va milliy adabiyotshunoslik maktablari mavjudligini e'tirof etish joizdir. Akademik V. M. Jirmunskiy o'zining "Сравнительное литературоведение" (Qiyosiy adabiyotshunoslik) asarida ta'kidlaganidek, adabiy hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik xalqlarning ijtimoiy va madaniy-tarixiy taraqqiyotidagi mushtaraklik taqozo etgan tarixiy-tipologik muvofiqlik natijasi yoki ularning tarixiy o'zaro ta'siri (madaniy aloqalar va ta'sirlar) oqibati bo'lishi mumkin. Birinchi holatda biz insoniyat jamiyati rivojlanishining bir xil bosqichlarida bir-biridan mustaqil ravishda yuzaga keladigan o'xshash badiiy strukturalar va obrazlarga duch kelamiz [2; 66-b.].

Ushbu ilmiy konsepsiya XIX asr o'zbek va nemis she'riyatidagi an'anaviy obrazlar tizimini qiyosiy tahlil qilish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Zero, o'zbek mumtoz adabiyoti vakillari uzoq yillik Sharq she'riyati qonuniyatlari hamda tasavvuf falsafasi doirasida an'anaviy obrazlarni sayqallagan bo'lsalar, G'arb ijodkorlari ham universal ramzlar vositasida borliqni badiiy aks ettirishga intilganlar. Shu bois an'anaviy obrazlarning genezisi va tipologik xususiyatlarini tadqiq etishda jahon adabiyotshunosligi hamda falsafiy-estetik tafakkur rivojiga ulkan hissa qo'shgan quyidagi olimlar va ularning nazariy konsepsiyalariga tayanish ilmiy qimmatga egadir:

Polshalik-amerikalik adabiyotshunos, shoir va tarjimon Cheslav Milosh (Czesław Miłosz) o'zining "The Witness of Poetry" ("She'riyat haqiqati") nomli ilmiy asarida an'anaviy obrazlar va ularning poetik tizimdagi kognitiv-metafizik mohiyatini chuqur tahlil qiladi. Olim adabiyotda an'anaviy timsollarni insoniyatning jamoaviy xotirasi va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi eng muhim estetik vosita sifatida talqin etadi. Milosh she'riyat fenomenini inson ruhiyati hamda umumiy qadriyatlar bilan bog'langan holda ko'rib, uni faqatgina tor doiradagi shaxsiy tajriba bilan cheklab qo'yish she'riyatning asl tabiatiga zid ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "she'riyat hamisha inson va uning taqdiri o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni izlaydi. An'anaviy obrazlar va diniy-mifologik timsollar she'riyatga haqiqatlarni bayon qilish imkonini beradi" [3; 78-b.].

Bundan tashqari, Milosh an'anaviy obrazlar jamiyat va madaniyatning keng kontekstida faoliyat ko'rsatib, insonning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishida, ayniqsa, tarixiy inqirozlar davrida muhim rol o'ynashini alohida qayd etadi. U poeziyaning vazifasini faqatgina shoirning ichki dunyosini aks ettirishda emas, balki diniy, madaniy-tarixiy obrazlar (Qudratli Xudo, Ibtidoiy jannat, universal orzu-istaklar, umumbashariy halokat va nur-zulmat munosabati) kabi arxetipik timsollarga tayanishda ham ko'radi. Olimning nazariy qarashlariga ko'ra, mazkur an'anaviy obrazlar konkret ijodkorning shaxsiy tajribasini umuminsoniy xotira darajasiga ko'taradi va she'riyatga falsafiy-metafizik teranlik bag'ishlaydi [3; 79-b.]. Cheslav Miloshning mifologik, diniy hamda tarixiy arxetiplarni she'riyatga falsafiy-metafizik teranlik bag'ishlovchi va davr inqirozlarini yoritib berishda ma'naviy tayanch vazifasini o'taydigan omil sifatida baholashi an'anaviy obrazlar tadrijini zamonaviy adabiyotshunoslik mezonlari asosida tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

Adabiyotshunos olim Yuriy Lotman (Юрий Михайлович Лотман) an'anaviy obrazlarning she'riy matnlarda shakllanishi, ularning ma'no qatlamlari bilan boyishi va kitobxon tafakkuriga ko'rsatadigan estetik hamda semantik

ta'sirini kuzatadi. An'anaviy obrazlar har bir yangi she'riy matnda o'zining tarixiy manbalari va madaniy asoslariga tayangan holda, shoirning estetik dunyoqarashi hamda zamon ruhiga mos ravishda yangi mazmun kasb etishini ta'kidlaydi. Jumladan, "hayot — yo'l" kabi an'anaviy ramziy timsol uzoq tarixiy davrlar mobaynida shakllanganligini isbotlaydi [4; 207-b.]. Yu. Lotmaning bu fikri "hayot — yo'l" timsolining insoniyat tafakkurida tarix davomida shakllanib kelgan chuqur ma'noli ramz ekanini ko'rsatadi. Ushbu an'anaviy obraz bugungi adabiyotda ham poetik ifodaning uzviy qismi sifatida yashab qolmoqda va har bir yangi matnda o'quvchida tanish hisni uyg'otgan holda har bir davrning estetik talablari asosida qayta talqin qilinadi. Yu. Lotman ta'rificha, "Daraxt, ayniqsa, 'abadiy' daraxt — eman, mifologik va madaniy an'analarda hayotning barqaror ramzi sifatida namoyon bo'ladi. U orqali abadiylik timsoli shakllanib, mavjudlik va davomiylik timsoliga aylanadi, o'limning emas" [4; 118-b.]. Bundan tashqari, Yu. Lotman an'anaviy obrazlarning she'riyatda namoyon bo'lishini matnning madaniy xotirasi (*kulturnaya pamyat teksta*) tushunchasi bilan chambarchas bog'laydi. Olimning fikricha, mumtoz she'riyat shu davr o'quvchisiga ham, keyingi davrlar kitobxoniga ham o'z qatlamlarida muhrlangan tarixiy-madaniy mezonlar tizimi orqali ta'sir ko'rsatadi. Bu konsepsiya o'zbek va nemis mumtoz she'riyatidagi an'anaviy obrazlarning genetik-tipologik tabiatini ochishda bosh metodologik mezon bo'la oladi. Fikrimizcha, mumtoz she'riy matndagi an'anaviy obraz muayyan madaniyatning ko'p asrlik ma'naviy va falsafiy tajribasini o'zida chuqur singdirgan, tuganmas badiiy xazina hamda ko'p qatlamli ma'no poydevoridir.

Qadimiy rus adabiyoti va poeziyasi borasidagi "Поэтика древнерусской литературы" nomli ilmiy asarida rus adabiyotshunos olimi Dmitriy Lixachyov (Дмитрий Сергеевич Лихачёв) an'anaviy obrazlar, jumladan, tabiatga xos milliy an'anaviy obrazlarga alohida e'tibor qaratgan. Unda olim bunday obrazlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va ularning rolini tahlil qiladi [5; 83-b.]. Jumladan, "Butun olam ramzlar bilan to'lgan va har bir hodisa ikki ma'noga ega. Qish — Iso Masihning suvga cho'mishi oldidan keladigan vaqtni ramzlaydi, bahor — inson hayotining yangi bosqichiga yangilaydigan vaqt, shuningdek, bahor — Iso Masihning tirilish ramzi ham hisoblanadi. Yoz esa abadiy hayot ramzi, kuz — so'nggi hukm ramzi, u — olamning oxirgi kunlarida Iso Masih to'plagan o'simliklar yig'imi faslidir..." [5; 176-b.]. Fasllarning diniy ramziylik bilan bog'lanishi insoniyatning qadimiy e'tiqod va tasavvurlaridan kelib chiqadi, chunki har bir fasl inson hayoti va ruhiy taraqqiyotining turli bosqichlarini eslatadi. Shu bilan birga, bu obrazlar turli madaniyat hamda diniy an'analarda turlicha talqin qilinib, har bir xalq o'z dunyoqarashi va falsafasiga mos ravishda ularni yangicha ma'no bilan boyitgan. Dmitriy Lixachyovning qadimiy lirikadagi tabiat va vaqt kategoriyalariga doir ushbu ilmiy xulosalari makon va zamon munosabatlarini mifologik-diniy va ijtimoiy kontekstda tadqiq etishda muhim metodologik manba bo'lib xizmat qiladi. Olim tomonidan yil fasllarining ramzlar silsilasi o'laroq baholanishi an'anaviy tabiat obrazlarining poetik matnda falsafiy-g'oyaviy mag'zini harakatlantiruvchi yetakchi semantik qatlam ekanligini ilmiy-nazariy asosda ko'rsatib beradi.

Jahon adabiyotshunosligida an'anaviy obraz tushunchasi insoniyatning madaniy merosi bilan bog'liq holda shakllanib borayotganiga buyuk adabiyotshunos va faylasuflarning nazariyalari orqali guvoh bo'ldik. Ushbu obrazlar dastlab diniy, mifologik va xalq og'zaki ijodidan kelib chiqqan bo'lsa, keyinchalik ularning adabiyotdagi talqinlari zamon va madaniyat ta'sirida kengayib, yangi qirralar kasb etdi. Ilmiy yondashuvimizga ko'ra, an'anaviy obrazlarning badiiy evrilish qonuniyatlarini tadqiq etish o'xshash va farqli jihatlarni ko'rsatish bilan birga, ushbu obrazlar ortida turgan madaniy tizimlar, milliy tafakkur tarzi va estetik qoliplarning o'zaro munosabatini ochib berishdan iboratdir. Bu esa, o'z navbatida, qiyosiy adabiyotshunoslikda obrazlar poetikasini statik, dinamik va tizimli nuqtayi nazardan baholash imkonini beradi.

Jahon adabiyotshunosligi nazariyalari tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy obraz adabiy jarayonning oddiy takroriy elementi emas, balki uzoq tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan, muayyan madaniy xotirani o'zida mujassamlashtirgan murakkab poetik kategoriya hisoblanadi. Uning asosida mifologik, diniy, falsafiy va estetik qarashlarning ko'p asrlik tajribasi mujassam bo'ladi. An'anaviy obrazning muhim belgisi uning barqaror semantik yadrosi bilan birga yangi badiiy kontekstda o'zgarish xususiyatiga ega ekanligidir. Shu bois gul, bulbul, may, zulf, daraxt, yo'l, nur, zulmat, suv, uy va fasllar kabi obrazlar turli davr va adabiy maktablarda umumiy ramziy asosni saqlab qolgan holda yangi ma'no qatlamlari bilan boyib boradi. Bu holat an'anaviy obrazning statik emas, balki dinamik poetik hodisa ekanini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Чернышевский Н. Г. Полное собрание сочинений: в 15 т. – Т. 2: Статьи и рецензии. 1853–1855 / под ред. В. Я. Кирпотина; подгот. текста Н. М. Чернышевской, С. С. Борщевского. – Москва: Гослитиздат, 1949. – 944 с. – С. 152. – URL: [Национальная электронная библиотека](#)
2. Жирмунский В. М. Сравнительное литературоведение: Восток и Запад: избранные труды. – Ленинград: Наука, Ленинградское отделение, 1979. – 493 с., 1 л. портр. – С. 66. – URL: [Российская государственная библиотека](#)
3. Miłosz C. The Witness of Poetry. – Cambridge, MA; London: Harvard University Press, 1983. – 121 p. – P. 78. – ISBN 0-674-95382-7. – URL: [Open Library](#)
4. Лотман Ю. М. Анализ поэтического текста: структура стиха: пособие для студентов. – Ленинград: Просвещение, 1972. – 272 с. – С. 207. – URL: [Электронная версия издания](#)
5. Лихачев Д. С. Поэтика древнерусской литературы. – 2-е изд., доп. – Ленинград: Художественная литература, Ленинградское отделение, 1971. – 413, [1] с. – С. 83. – URL: [Российская государственная библиотека для молодежи](#)